

QURUQLIK QORINOYOQLI MOLLYUSKALARINING SHAHAR BIOTOPLARI BO'YICHA TARQALISHI

Davronov Barno Orziyevich¹, Xoliqulova Gulchehra Alimardonovna¹, Maxmarajabov Doston²

¹*Qarshi davlat universiteti,*

²*Turon Universiteti*

Abstract: The city of Shahrisabz is located in the northeastern part of the Kashkadarya region. It is located west of Shahrisabz. urban fauna is the result of the interaction of such factors as the type of geographical location, topography, the number and size of parks, avenues and parks, the presence of connections with the natural environment of the suburbs, and the level of pollution of the city

Quruqlik mollyuskalari yer ekosistemesi faunasining bir qismi bo'lib, quruqlik biotsenozi shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ular o'simliklar bilan oziqlanib, tuproq hosil bo'lishida bevosita ishtirok etadi. Shuning bilan bir qatorda mollyuskalar chig'anoqlari yer qatlamlarida yaxshi saqlanib, tog' jinslarining yoshini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Shahar faunasi-geografik joylashuv tipi, relyefi, undagi istirohat bog'lari, xiyobonlar va bog'larning soni, o'lchami, shahar atrofi tabiiy muhiti bilan aloqalarning mavjudligi, shaharning ifloslanish darajasi kabi omillarning o'zaro munosabatlari natijasida yuzaga keladi. Bundan tashqari, zamonaviy qurilishning jadalligi, ko'kalamlashtirish va shahar qurilishining boshqa harakatlariga bog'liq

Shaharlarda mollyuskalar oddiy yo'l bilan tarqalishi mumkin emas. Tarqalish odatda, ularni odamlar tomonidan o'tkazilishi bilan boradi. Shaharda orolli yashash joylarining yuzaga kelishi ko'cha va qurilishlarning chegaralovchi effekti bilan yuzaga keladi, bu esa areallarning chegarasi, o'lchamlari va shakllarini aniqlaydi. Shahar biotoplarida antropogen omilning ta'siri yuqori va bu turlarning uchrash darajasida namoyon bo'ladi. Shaharlar hududi 4 ta biotopga ajratilib o'rganildi: istirohat bog'lari va xiyobonlar, bog'lar, ekin dalalari (ochiq va yopiq grunt), antropogen o'tloqlar (gazonlar, g'alladoshli va turli o'tli sernam o'tloqlar).

Istirohat bog'lari va xiyobonlar - ko'p hollarda keng bargli daraxt o'tqazmalaridan iborat. O'tloq yarusining tarkibi o'ta kambag'al, odatda inson tomonidan ekilgan g'alladoshlardan iborat. Istirohat bog'lari va xiyobonlarning quruqlik mollyuskalari uchun qulay sharoitga ega biotop bo'lib xizmat qiladi, ammo xazonli to'shalmalarning doimiy ravishda yo'qotilib borishi, bu esa o'z navbatida quruqlik mollyuskalarining oziqa bazasining kamayishi, qishlash sharoitining keskin yomonlashuvi, yozning qurg'oqchilik davrini og'ir o'tishi va to'shalmalar ostida yashovchi turlarning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Daraxt va buta yarusining to'shalmalari ostida *Cochlicopa lubrica*, *Vallonia pulchella*, *Lytopelte maculata*, *Zonitoides nitidus*, *Phenacolum annularis*, *Xeropicta candahica* doimiy ravishda uchraydi. *Deroceras sturanyi* va *D. laeve* mazoik ko'rinishda tarqalgan. Shaharlarda ninabargli daraxtlar o'tqazilgan maydonlar ham ma'lum joyni egallaydi va o'zining to'shalmalari bilan farq qiladi. Ninabargli daraxtzorlarning to'shalmalari mollyuskalar yashashi uchun yaroqsiz bo'lib, u doimo yupqa va g'ovak, quruq, o'zida deyarli namlikni saqlamaydi. Bu yerda asosan kserofil turlar - *Xeropicta candahica* va *Sphyradium doliolum* uchraydi. Shahrisabz shahri istirohat bog'i ninabargli daraxtzorlarida *Sphyradium doliolum* ning 1m² dagi zichligi 6-8 donani tashkil etadi. Doimiy ravishda sug'oriladigan aralash daraxtzorlarda *Leucozonella mezoleuca*, *Lytopelte maculata*, *Macrochlamys sogdiana* turlari uchraydi. Shahrisabz shahri istirohat bog'ida *Leucozonella mezoleuca* 1m² da 10-12 donagacha uchrasa, bu ko'rsatgich Amur Temur nomidagi istirohat bog'ida 1 m² da 2-5 donani tashkil etadi. *M. sogdiana* ning zichligi turlicha va bu sernam joylarning mavjudligi bilan bog'liq. Shahrisabz shahridagi Markaziy hiyobonda ariq ichida 1 m² 8-10 dona bo'lsa, *Cochlicopa lubrica* Amir Temur bog'ida o'tlar orasida bu ko'rsatgich 7-9 donani tashkil etadi.

Bog'larning tuproqlari har yili kovlanadi va tinimsiz ravishda turli tipdagi o'g'itlar solinadi. Qorino yoqli mollyuskalar mevali bog'larda va tokzorlarda ham keng tarqalgan. Bog'larda *D. caucasicum* va tokzorlarda *M. sogdiana* ning tarqalishi Bu yerda dominant turlar *Macrochlamys sogdiana*, *Phenacolum annularis*, *Zonitoides nitidus*, *Cochlicopa lubrica*, *Candaharia levanderi* hisoblanadi. Bog'larda zararli turlar yerga tushgan mevalar bilan oziqlanish bilan birga, mevalarning ustida o'rmalaydi va ekskrementlari bilan zararlaydi. Shahar kasalxonasi bog'ida *Zonitoides nitidus* ning 1 m² dagi zichligi 10-12 dona bo'lsa, Shahrisabz shahri Yoshlik mahallasidagi bog'larda bu ko'rsatgich 6-11 donani tashkil etadi.

Shaharlarda **ekin dalalarining** maydoni ham u darajada katta emas. Ekinlardan pomidor, bodring, karam va ko'kat yetishtiriladi. Bu yerda asosan shilliqqurtlar - *Deroceras reticulatum*, *D. caucasicum*, *Lytopelte maculata*, *Candaharia levanderi*, *C. izzatullaevi* uchraydi. Hozirgi vaqtda shahar hududidagi ekin dalalarida *Deroceras reticulatum* va *D. caucasicum* turlari dominant tur hisoblanadi. Shahrisabz shahri hududidagi hovlilarda *Deroceras caucasicum* ning aprel oyida 1 m² dagi zichligi 17-24 dona bo'lsa, mayning oxirlarida bu ko'rsatgich 70-200 donaga ko'tariladi, chunki bu paytda tuxumdan shilliqqurtlar chiqa boshlaydi. *Deroceras reticulatum* esa dastlab issiqxonalarda topilgan bo'lsa, hozirgi kunda ko'plab biotoplarda, hatto yertulalarda ham uchramoqda.

Antropogen o'tloqlar-o'z ichiga gazonlar, g'alladoshli va turli o'tli sernam o'tloqlarni oladi. Ular shaharlarda keng tarqalgan va ko'chalar bo'ylab joylashgan. Odatda uncha katta bo'lmagan maydonlarni egallaydi. Yoz davomida ulardagi o't qoplami doimiy ravishda o'rib boriladi, bu esa tuproqni shamol ta'sirida qurish imkonini oshiradi. Bu uchastkalarda doimo namlik saqlab turilishga harakat qilinadi, ammo malakofaunasi juda kam turli. Aniqlangan turlar ham faqat erta bahor va kuzning seryog'in davrida uchrashi bilan xarakterlanadi. Dominant turlar sifatida *Xeropicta candaharica*, *Zonitoides nitidus* va *Cochlicopa lubrica* larni ko'rsatish mumkin. Shahrisabz shahridagi I.Karimov ko'chasidagi o'tloqlarda *Lytopelte maculata* ning 1 m² dagi zichligi 3-8 dona bo'lsa, bu ko'rsatgich Turli biotsenoz va agrotsenozlardan farq qilib, issiqxonalar uchun asosiy omil namlik va haroratdir. Bu omillarning barqaror bo'lishi issiqxonadagi o'simliklar va hayvonlar uchun muhimdir.

Biz tadqiqotlarimiz chog'ida shunga amin bo'ldikki, ayrim xususiy issiqxonalarning tuprog'i har yil almashtirilib turiladi. Issiqxona egalari fikriga ko'ra, bir yil davomida uning tuprog'ining unumdorligi pasayadi va unda turli kasalliklar keltirib chiqaruvchi parazit organizmlar ko'payadi. Issiqxona tuprog'i har yili almashtirish jarayonida ko'pgina mollyuskalarning tuxumlari yoki o'zi issiqxonaga tuproq bilan keltiriladi. Bundan tashqari, issiqxonalarda issiqlik va namlik omilining doimiyligi turlar yashashi va oziqlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Ayrim xususiy issiqxonalarda tuproq issiqxonaga kiritishdan oldin kimyoviy qayta ishlanganligi uchun umuman mollyuskalar bo'lmaydi.

Bu yerda shuni qayd etish kerakki, tadqiqot hududining turlarga boyligi shahar hududining kattaligi va unda mollyuskalar yashashi uchun qulay sharoitga ega biotoplarning ko'pligi bilan belgilanadi. Shahrisabz shahri hududining boshqa shaharlardan kattaligi va biotoplarning xilma-xilligi natijasida ushbu shaharning malakofaunasi turlar soni bilan boshqa shaharlardan farq qilishiga olib kelgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Увалиева К.К. Наземные моллюски Казахстана и сопредельных территорий / К. К. Увалиева. – Алма-Ата: Наука, 1990. – 224 с.
2. Пазилов А.П., Азимов Д.А. Наземные моллюски (Gastropoda, Pulmonata) Узбекистана и сопредельных территорий. – Ташкент: Фан, 2003. – 316 с.
3. Шилейко А.А. Наземные моллюски подотряда Pupillina фауны СССР (Gastropoda, Pulmonata, Geophila) // Фауна СССР. Моллюски. — Л., 1984. — Т. 3. — Вып. 3. — № 130. — 399 с
4. Шилейко А.А. Наземные моллюски надсемейства Helicoidea // Фауна СССР. Моллюски. — Л., 1978. — Т. 3. — Вып. 6. — № 117. — 384 с.
5. Орзиева, Ё. (2024). Quruqlik qorinoyoqli mollyuskalarning atrof-muhit omillariga moslanishi. *Новый Узбекистан: наука, образование и инновации*, 1(1), 66-69.
6. Orziyeva, Y., & Davronov, B. (2024). MOLLUSCAN FAUNA AND ECOLOGY OF MOUNTAIN KARATEPA. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 3(9), 73-77.
7. Orziyeva, Y. (2022). Water Molluscs Found in Some Water Basins of Kashkadarya Region. *Miasto Przyszłości*, 27, 145-148.
8. Орзиева, Ё. М. (2022, September). АБИОТИКА К РАСПРОСТРАНЕНИЮ МОЛЛЮСКОВ В ВОДОЕМАХ ВЛИЯНИЕ ФАКТОРОВ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 1, pp. 25-32).
9. Orziyeva, Y. (2022). SUV MOLLYUSKALARINING PARAZITLARNING ORALIQ XO'JAYIN SIFATIDAGI ROLI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(6), 26-30.
10. Orziyevich, D. B. (2022). MOLLUSCS ARE INTERMEDIATE HOSTS OF HELMINTHS IN THE SOUTH OF UZBEKISTAN. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(04), 249-252.
11. Orziyevich, D. B. (2021). Features of the lifestyle of aquatic molluscs of Central Asia. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 837-840.
12. Xosilova, G., & Ismoilova, G. (2021). MOLLYUSKALARINING TABIAT MUVOZANATIDAGI IJOBIY VA SALBIY AHAMIYATI. *Scientific progress*, 2(5), 397-400.
13. Abdikayumovna, X. G. (2023). Mazkur maqolada Respublikamizdagi suv omborlarda uchraydigan mollyuskalarning turlari, yashash sharoitlari, tuzilishi, faunasi, ekologiyasi, tarqalishi va inson hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 2(5), 78-81.
14. Yusupovich, R. A. (2022). ECOLOGICAL-FAUNIST ANALYSIS OF COXINALLIDES (COLEOPTERA, COCCINELLIDAE) OF THE KARSHI OAKH. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 331-335
15. Рахматуллаев, А. Ю., Давронов, Б. О., Норкобилова, З. Б., & Омонова, Н. Р. (2021). Фауна Дождевых Червей В Узбекистана. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 310-314.